

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Farfiyev Baxramdjan,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori (DSc),


e-mail: farfiyev_b@mail.ru

Abdupattaev Mumin Mirzo,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

mirzo21@umail.uz

DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG'UNLIGI, BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354899>

ANNOTATSIYA

Tarix sahifalaridan yaxshi ma'lumki, insoniyat o'z tarixi davomida jamiyat a'zolarining huquqlarini himoya qilishga doimo harakat qilib keldi. Ayniqsa, davlat institutining vujudga kelishi mazkur jarayonning kechishiga faol ta'sirini o'tkaza boshladi. Zero, davlat o'z siyosatida ushbu masalani doimo ustuvor vazifa sifatida belgilab bordi. Pirovardida, davlat ushbu siyosatni amalga oshirish uchun avvalambor ijtimoiy barqarorlikka ehtiyoj cezadi va uni ta'minlashga barcha moddiy hamda ma'naviy resurlarni jalb qilishga intiladi. Konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashda diniy qadriyatlarining o'rni o'zigachadir. Jumladan, mamlakatimiz aholosining mutlaq qismi e'tiqod qiladigan islom diniyda bag'rikenglik masalari ustuvor xususiyatga egadir. Mazkur ilmiy maqolada mamlakatimizda diniy e'tiqod va vijdon erkinligi munosabatlarini ratsional asosida amalga oshirishga qaratilgan huquqiy asoslar sotsiologik jihatlarida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, insoniyat, huquq, muassasa, davlat, ustuvorlik, siyosat, ratsionallik, moddiy va ma'naviy resurslar, konfessiyalararo totuvlik, vijdon erkinligi.

Фарфиев Бахрамджан,

профессор Международной академии исламоведения Узбекистана, доктор социологических наук (DSc),

E-mail: farfiyev_b@mail.ru

Абдупаттаев Мумин Мирзо,

старший преподаватель Международной академии исламоведения Узбекистана, доктор философии по историческим наукам (PhD)

mirzo21@umail.uz

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГАРМОНИЧНОСТИ СВЕТСКОГО И РЕЛИГИОЗНОГО, ТОЛЕРАНТНОСТИ – ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Из страниц истории общеизвестно, что человечество на протяжении всей своей истории стремилось защищать права членов общества. В частности, появление института государства стало оказывать активное влияние на ход этого процесса. Ведь государство всегда определяло этот вопрос как приоритетную задачу в своей политике. В конечном счёте, для реализации этой политики государству прежде всего необходима социальная стабильность, и оно стремится привлечь все материальные и духовные ресурсы для её обеспечения. Религиозные ценности играют особую роль в обеспечении межконфессионального согласия. В частности, в исламской религии, которую исповедует абсолютное большинство населения нашей страны, вопросы толерантности носят приоритетный характер. В данной научной статье исследуются правовые основы, направленные на рациональную реализацию отношений религиозных убеждений и свободы совести в нашей стране с социологической точки зрения.

Ключевые слова: общество, человечество, право, институт, государство, приоритет, политика, рациональность, материальные и духовные ресурсы, межконфессиональное согласие, свободы совести.

Farfiev Bakhramdjan,

Professor of the International Academy of
Islamic Studies of Uzbekistan,
Doctor of Sociological Sciences (DSc),
E-mail: farfiev_b@mail.ru

Abdupattayev Mumin Mirza,

Senior Lecturer of the International Academy
of Islamic Studies of Uzbekistan, Doctor of
Philosophy in Historical Sciences (PhD)
mirzo21@umail.uz

ENSURING HARMONIC BETWEEN SECULAR AND RELIGIOUS, TOLERANCE – THE BASIS OF SOCIAL STABILITY**ABSTRACT**

It is well known from the pages of history that throughout its history humanity has sought to protect the rights of members of society. In particular, the emergence of the institution of the state began to exert an active influence on the course of this process. After all, the state has always defined this issue as a priority task in its policy. Ultimately, to implement this policy, the state first of all needs social stability, and it seeks to attract all material and spiritual resources to ensure it. Religious values play a special role in ensuring interfaith harmony. In particular, in the Islamic religion, which is professed by the absolute majority of the population of our country, issues of tolerance are of a priority nature. This scientific article examines the legal framework aimed at the rational implementation of relations between religious beliefs and freedom of conscience in our country from a sociological point of view.

Keywords: society, humanity, law, institution, state, priority, policy, rationality, material and spiritual resources, interfaith harmony, freedom of conscience.

KIRISH

Ma'lumki, davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri – bu jamiyat a'zolarining haq-huquqlarini himoya qilishdir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun avvalambor, mamlakatda barqarorlik holatining ta'minlanishi taqozo etiladi va u davlat institutining ustuvor masalari sirasiga taalluqlidir. Zero, ijtimoiy barqarorlik hodisasi har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, barqarorlik – «stabilis» so'zidan olingan bo'lib, u doimiylik, mustahkamlik, degan ma'nolarni anglatadi [7, – S.410]. Ushbu ta'rifga tayanib, barqarorlik sotsial tizimning mustahkam holatidir va u mazkur tizimning ratsional darajada faoliyat

ko'rsatishi hamda rivojlanishini ta'minlaydi, deb hisoblashimiz mumkin. O'z navbatida ijtimoiy barqarorlik turg'unlik va beqarorlikning aksidir va ularga qarshi kurashish mexanizmi bo'lib gavdalanadi.

Ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi va mustahkamlanishi sotsial institutlar bajarayotgan funksiyalarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy barqarorlik hodisasi sotsial institutlarning harakatchanligi, sermahsul faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqishining ko'rinishi bo'lib ijtimoiy tizim dinamikasining pasayishi, turg'unlik jarayonlarining vujudga kelishi, sotsial konfliktlarning soni va ko'lamining oshishi, axolining o'z mehnat natijalaridan qoniqmasligi natijasida vujudga keladigan antisotsial hodisalarning ko'payishi namoyon bo'lishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, jamiyat barqarorligining kushandasi bo'lgan salbiy holatlarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilishga intilishi kerak, aks holda jamiyat o'z rivojida progress holatidan regressga yuz tutadi va uning barcha sohalarini chukur ijtimoiy tanazzul qamrab oladi.

Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga eng ustuvor masalalardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Bunda jamiyat a'zolari sotsial institutlarning funksiyalari vositachiligida ijtimoiy majburiyatlarini astoydil bajarishga intilmoqda. Ayniqsa, fuqarolar, millatlar va konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlarning umumxalq manfaatlari asosida takomillashishi, sotsial nazorat tamoyillarining ta'sirini kuchaytirishga intilish, kuchli davlat hokimiyati rolining oshib borishi jamiyat barqarorligini saqlash hamda mustahkamlashga munosib xizmat qilmoqda. Albatta, ko'rsatib o'tilgan omillar mazkur barqarorlikni to'liq ta'minlay olmaydi. Ulardan tashqari yana bir qator ma'naviy omillar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning ishonchli garovi bo'lib gavdalanadi. Jumladan, jamiyatimizdagi barqarorlikni saqlash masalalarida boshqa omillar bilan bir qatorda bag'rikenglik tamoyilining ahamiyati ham muhim rol o'ynayapti.

METODOLOGIYA

Bag'rikenglik (tolerantlik) tushunchasi lotincha «tolerantia» olingan bo'lib, u avvalambor diniy e'tiqod erkinligini, keyinchalik esa boshqa kishilarning turmush va tafakkur tarziga hurmat bilan qarashni ifodalaydigan sotsio-psixologik kategoriyaga aylandi. Hozirda uning millatlar, fuqarolar va konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ratsionallashtirishdagi roli beqiyosdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkam qaror toptirishning eng muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy va diniy bag'rikenglikdir. Yurtimizda turli konfessiyalar vakillari yagona oila bo'lib, do'stlik va hamjihatlik muhitida yashayotgani, jonajon Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgani bizning eng katta boyligimizdir» [4].

Jamiyatda bag'rikenglikni ta'minlashning ilmiy jihatlari haqida professor M.H.Ganieva quyidagilarni yozgan edi: «Jamiyatda bag'rikenglikning roli va ahamiyati uning mohiyatidan kelib chiqadi. Kishilar asosiy qismining turli mafkuraviy nazariyalar, axloqiy va diniy qarashlar, madaniyat hodisalari, turli millatlarga taalluqli insonlarga nisbatan munosabatlarning yo'nalish darajasi aksariyat hollarda ijtimoiy barqarorlikni belgilab beradi. Bu holat ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyotning zaruriy shart-sharoiti bo'lib namoyon bo'ladi» [5, – S.67].

Bag'rikenglik tamoyili islom diniga xos muhim sifatni o'zida aks ettirar ekan, uning mamlakatimizdagi konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikenglik hodisasini ta'minlashdagi ahamiyatli roli kundalik va ijtimoiy hayotimizda yaqqol namoyon bo'lmoqda, degan fikrni ildam ilgari surishimiz mumkin.

Mamlakatimiz hududiga XII asr oxiri – XIII asrning boshida kirib kelgan islom tez fursatda yetakchi dinga aylandi va buyuk bobokalonlarimizning ilmiy-amaliy faoliyati sababchiligida yanada rivoj topdi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Axror Valiy kabi ko'plab ajdodlarimiz islom dini taraqqiyotiga butun musulmon olami e'tirof qilgan ulkan ulushlarini qo'shdilar. Ular meros qilib qoldirgan asarlarda jamiyat a'zolarining o'zaro tinchlik va totuvlikda yashash masalalari atroflicha yoritib berilgan va bunda islomda mujassamlashgan tolerantlik tamoyili markaziy o'rinni egallaydi.


ASOSIY QISM

Zamonaviy O'zbekiston ko'p millatli va turli-tuman konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan

dunyoviy mamlakat sifatida o'z ijtimoiy barqarorligini saqlash hamda uni yanada mustahkamlash uchun mazkur tarixiy-madaniy merosga tayanib kelmoqda. Bu haqda islomshunos olim Kamilov K.S. o'z ilmiy tadqiqotlarida quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: «Yuksak diniy bag'rikenglik madaniyati mustaqillik yillarida davlatimizning mustahkamlanishida diniy omildan demokratik yo'llar orqali oqilona foydalanishga keng imkoniyatlar yaratmoqda» [6, – B.16].

Demak, bag'rikenglik hodisasi ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarda o'ta nozik masalalar turkumiga tegishlidir. Shuning uchun bunday murakkab sotsial tarkibga ega jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mushkul vazifa hisoblanadi. Lekin ta'kidlab o'tganimizdek, diniy omil rolini e'tiborga olmay turib, ushbu barqarorlikni to'liq holda ta'minlab bo'lmaydi. Aynan shunday nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonda xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalalari mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan davlat siyosatining ustuvor vazifasi darajasiga ko'tarilgani ham davr talabidir.


Rasmiy statistika ma'lumotlaridan ma'lumki, milliy tarkib bo'yicha o'zbeklar mamlakatimiz aholisining 3/4 qismini tashkil etadi. Yurtimizda slavyan, boshqa turkiy, forsiy millatlarga taalluqlilar – rus, ukrain, belarus, qozoq, tatar, qirg'iz, uyg'ur, tojik va boshqa ko'plab etnik guruhlarining a'zolari o'zbeklar bilan o'zaro hamjihatlik hamda ahil-inoqlik asosida istiqomat qilib kelmoqdalar (1-rasm) .



1-rasm. O'zbekiston respublikasi doimiy aholisining etnik tarkibi jami aholiga nisbatan % hisobida

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 ta tilda olib borilmoqda. Teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar 12 ta tilda efigra uzatilib, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda. Milliy markazlar davlat tadbirlari va umumxalq bayramlarida doimiy ravishda faol ishtirok etib keladi. Ularning huquq va erkinligi, manfaatlarini himoya qilish, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, milliy an'ana hamda qadriyatlarini rivojlantirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Turli millat va din vakillarining har qanday tajovuzdan bexavotir o'z ibodatlarini emin-erkin ado etishlari jamiyat barqarorligidagi ustuvor jihat deb qaraladi.

Diniy mansublik masalasida esa islom son jihatidan eng ko'p e'tiqod qiladiganlar dini hisoblanadi, aholining ma'lum bir qismi esa xristianlik, buddaviylik, yahudiylik va boshqa dinlarga e'tiqod qiladi. Mamlakatimizda ko'plab masjidlardan tashqari cherkovlar, sinagogalar va boshqa ibodatxonalar ham qad ko'tarib, ular o'z faoliyatlarini emin-erkin tarzda olib bormoqda. Bunday sharoitlarda turli konfessiyalarning vakillari o'z e'tiqodlarini ham, boshqalarnikini ham sira kamsitmaydilar (2-rasm).

ЎЗБЕКИСТОНДА РАСМИЙ ФАОЛИЯТ ЮРИТАЁТГАН
НОИСЛОМИЙ ДИНИЙ ТАШКИЛОТЛАР КЎРСАТКИЧИ

2023 йилда Тошкент вилояти
Ангрен шаҳрида **1 та католик**
черкови рўйхатдан ўтказилди

Бугунги кунда Республикада **197 та**
ноисломий диний ташкилот фаолият
юритмоқда:

✝ **179 та** христиан;

✡ **8 та** яхудий;

☸ **7 та** баҳойий;

🌀 **1 та** кришначи;

🌀 **1 та** буддавий;



Ўзбекистон Библия жамияти.

2-рasm. О'zbekistonda rasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy tashkilotlar ko'rsatkichi

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qur'oni karim oyatlarida boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar bilan qanday muomala qilish tartib-qoidalari va odobi qat'iy belgilangan. Ayniqsa, o'z diniy e'tiqodini boshqalarga zo'ravonlik va majburiylik asosida singdirishga intilish islom dinida keskin qoralanadi. Ushbu fikrlarimizga Qur'oni karim suralaridagi bir qator oyatlardan asos topishimiz mumkin. Masalan, «Baqara» surasining 256-oyatida «Dinga majbur qilish yo'q» [11, – B.263], degan hukm ilgari surilgan. Mazkur hukm keyingi suralarda yanada kengaytirilgan holda bayon qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, «Mumtaxana» surasining 8-oyatida esa quyidagi xitob yangraydi: «Alloh sizlarni diniy urush qilmagan va diyorlaringizdan quvib chiqarmaganlarga yaxshilik va adolat qilishdan qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko'radi» [12, – B.126].

Hadislarda ham musulmonlarning boshqa diniy e'tiqod egalariiga bo'ladigan munosabatlari aniq va ravshan mazmunda belgilangan: «Kimki zimmiyga (musulmonlar yurtida yashovchi boshqa din vakili) ozor bersa, men unga dushmandirman. Mening dushmandligim qiyomat kuni bo'lur» [10, – B.56].

Yuqoridagi diniy manbalarda qayd etilgan ko'rsatmalarda kishilarni diniy e'tiqodga ega bo'lishga majburlamaslik talabi dunyoviy mazmunga ega bo'lgan mamlakatimiz Konstitutsiyasining 35-moddasida o'z aksini topgan [1]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasida diniy sohadagi davlat siyosatining asosiy vazifalaridan birida fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish masalasi qo'yilgan [2].

Mazkur vazifa bugungi kunda mamlakatimiz sharoitlarida muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Bizdagi sharoitlardan farqi o'laroq, hozirda o'zini boshqa davlatlar uchun «namuna» sifatida ko'rsatishga harakat qilayotgan ayrim mamlakatlar demokratik taraqqiyotning yuqori cho'qqisiga chiqqanlarini da'vo qilsalar-da, amalda esa bizning jamiyatda ta'minlangan tolerantlikning zarrachasiga ega emaslar. Ularda boshqa dinlarning vakillariga nisbatan toqatsizlik holatlari kuzatilmoqda. G'arb jamiyatining matbuotida, karikatura uslubida nafaqat islom, balki xristian dini qadriyatlarining ham tanqid qilinishini muntazam tarzda uchrab turishi ushbu fikrlarimizga amaliy misol bo'lishi mumkin. O'zining g'alamis niyatlarini amalga oshirishni mo'ljallagan ayrim reaksiyon kuchlar «musulmon olamining fuqarolari bunday odobsizlikka Muso va Iso payg'ambarlarga nisbatan o'z hurmatsizliklarini namoyish qilish bilan javob beradilar, bu esa

global miqyosdagi konfessiyalararo to'qnashuvlarni keltirib chiqarishga bosh turtkini beradi», deb qat'iy ishongandilar. Biroq, bu buzg'unchi kuchlar islom dinida yahudiylar va nasroniylar hamda yana boshqa dinlarga e'tiqod qiladiganlarga nisbatan zulm qilish, ularni behurmat qilish harakatlari qattiq qoralanishini o'zlarining chalasavodliklari tufayli yoki bilmaydilar, yoki bilishni umuman istamaydilar. Ammo ular kutgan vaziyat vujudga kelmadi. Chunki islom dinidagi ratsionallik tamoyili bunday nozik masalaga bag'rikenglik asosida yondashishni ta'minladi. Darhaqiqat, o'tgan davr payg'ambarlariga ham samimiy hurmatda bo'lish lozimligini bizga buyuk ajdodlarimiz islomning ikkinchi muhim manbasi – hadislar asosida tushuntirib ketishgan. «Men Maryam o'g'li Iso bilan bu dunyoda ham, oxiratda ham yaqindirman. Men bilan uning o'rtasida payg'ambar o'tmagan. Payg'ambarlarning hammasi bir otaning farzandlaridir, onalari har xil, ammo dinlari birdir» [9, – B.9].

Mustaqilligimiz sharofati bilan mamlakatimiz aholisining islom dini manbalari bilan yaqindan tanishib borishi tufayli jamiyatimizda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan haqiqiy, beg'araz bag'rikenglik hodisasining shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ldi. Bu ijtimoiy ijobiy hodisa yurtimizdagi konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik hamda ahillikning ishonchli va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Aynan ushbu fenomen tufayli jamiyatning barcha sohalarini rivoji uchun muhim shart-sharoitlar bunyod bo'ldi. Shuningdek, jamiyatimizdagi ijtimoiy hamkorlik hodisasining ahamiyati ham mazkur barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida gavdalanayapti. Bu haqida professor T.B.Matibaev quyidagilarni yozadi: «Darhaqiqat, bir jamiyatda yashab, mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash, shunidek, xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir Vatanda yashashini qo'llab-quvvatlash shunchaki yaxshilik va bag'rikenglik emas. Buning uchun nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligi zarur. Bu o'z navbatida, barchadan insonparvarlik, faollik, o'zlikni anglab yashashni talab etadi» [8, – B.160-161].

Islom tolerantligining jamiyatimizda hukm surayotgan ijtimoiy barqarorlik hodisasiga faol ta'sirini xorij mamlakatlarining din peshvolari ham ta'kidlashayotgani ijobiy holdir. Xususan, ushbu fikrimizni Moskva va butun Rossiya patriarxi Kirillning 2017 yilning sentyabr oyi oxirida, O'zbekistonga tashrifi chog'ida ilgari surgan xulosalari bilan ham asoslashimiz mumkin. U O'zbekistondagi cherkov, boshqa ibodatxonalar va turli binolarni ko'rib, O'zbekistonda din va e'tiqodga bo'lgan hurmatga tan berdi. «Amerika, Yevropa siyosatchilarini O'zbekistonga chaqiring, kelib ko'rishsin. Bunday bag'rikenglik hech qaerda yo'q! Men bu yerda ko'rganlarimni hamma yerda va har doim aytaman. Bu yerda odamlarning samimiy mehr-muhabbati va hurmatini his qildim», - dedi patriarx Kirill» [14].

Rus pravoslav cherkovi rahbarining yuqoridagi fikrlari empirik asosga ega. Jumladan, Pravoslav Muqaddas-Tixon gumanitar universiteti (PSTGU) sotsial fanlar fakultati dekani, professor Igor Ryazansevning xabar qilishicha, 2017 yilning 15-25 sentyabr kunlari O'zbekistonda «Rus pravoslav cherkovi kavmining Rossiya va horijdagi ahvoli» mavzuida olib borilgan tadqiqotlari natijalari quyidagi ko'rinish hosil qildi: O'zbekistondagi Rus pravoslav cherkovi qavmining tadqiqotda ishtirok etgan 71% vakili o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi do'stlikka qat'iy ishonar ekan, shuningdek, respondentlarning 65% esa O'zbekistonda rusiy zamon aholi o'zini xavf-xatardan yiroq va badastir hayot kechirayotgani haqida munosabat bildirdi [15].

Biroq, ayrim xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilar o'rtasidagi ahillik va inoqlikka noxolis baho berayotganlari ham uchrab turishi kuzatilmoqda. Chunonchi, Open Doors inson huquqlarini himoya qilish tashkiloti O'zbekistonni xristianlarning chiqishtirmaslik darajasi yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatiga kiritdi. Bu g'alamislikka nisbatan Toshkent va O'zbekiston mitropoliti Vikentiy, ommaviy axborot vositalarida respublikadagi pravoslav xristiantlarini chiqishtirilmaligi yuzasidan paydo bo'lgan bunday xabarlar haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmasligini ma'lum qildi. 2019 yilning 20 yanvar kuni Toshkentda bo'lib o'tgan Cho'qintirish marosimida O'zbekiston mitropoliti Vikentiy xorijiy tashkilotning ushbu ma'lumotlari bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

«Men shuni ishonch bilan aytishim mumkinki, O'zbekistonda bunga yaqin bo'lgan hech narsa yo'q. O'zbekiston barcha an'anaviy dinlarga hurmat bilan qaraydi, ayniqsa, xristian diniga, boz ustiga

xristian dini eng qadimiy dinlardan biri sanalib, mamlakatda din vakillari soni bo'yicha ham ikkinchi o'rinda turadi. Respublikada o'tgan Rojdestvo va Cho'qintirish bayramlari bu yerda pravoslavlarning yuqori darajada hurmatga sazovor ekanligini yana bir bor isbotlaydi... Barcha xavfsizlik xizmatlari bizga g'amxo'rlik ko'rsatib, barcha bayramlarni munosib nishonlashimizni ta'minladi» [16], – deydi mitropolit. Bundan tashqari, u O'zbekiston Prezidentiga xristianlarga doimiy e'tibor va mamlakatda targ'ib etilayotgan xalqlar o'rtasida bag'rikenglik va do'stlik siyosati uchun ham minnatdorlik izhor etdi [17].

Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy barqarorlik holati tahlilidan biroz chekinib, masalaning boshqa mamlakatlardagi ahvoli bilan solishtirsak quyidagi vaziyatga duch kelamiz: keyingi yillarda dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tangliklar hamda ular negizida sodir etilayotgan noho'sh hodisalar borgan sari ko'payib borayapti va bu holat mazkur mintaqalar jamiyatlarining hayotida diniy omildan oqilona foydalanilmaganlikning natijasidir. Pirovardida, diniy negizdagi sotsial konfliktlar jamiyat uchun o'ta xatarli va talofatli bo'lgan – fuqarolar orasidagi antagonistik qarama-qarshiliklarini keltirib chiqaryapti. Bu fikrga misol tariqasida Yevropa hududida Shimoliy Irlandiya katoliklari va protestantlari, Bolqon yarim orolida xristianlar va musulmonlar, Misr, Sudan, Livanda musulmon arablar va xristian arablar, Iroq, Suriyada sunniylar va shialar orasidagi xatarli ziddiyatlar hamda ular keltirib chiqarayotgan ijtimoiy keskinliklarni ko'rsatishimiz mumkin. Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va islom olamining boshqa mintaqalarida arablar aholining tub millati hisoblansa-da, lekin ular turli konfessiyalar va har xil mazhablarga mansubdir. Ushbu konfessiyalar va mazhablar o'rtasida o'zaro bag'rikenglik, toqatlilik hamda chidamlilik sifatlarining yetishmasligi ijtimoiy konsensusni ta'minlashga monelik qilmoqda. Bu holat yuqorida keltirilgan mudhish voqealarning vujudga kelishiga asosiy sabab bo'lmoqda.

To'g'ri, bu mamlakatlarning ichki ishlariga boshqa horijiy davlatlar o'z manfaatlaridan kelib chiqib, aralashayotganlarini ham ta'kidlash lozim. Lekin har qanday tashqi ta'sir jamiyat ichki sharoitlardagi muammolarga moslasha olsa va ular bilan sintezlashishga muvaffaq bo'lsagina, u bunday jarayonlarda jiddiy calbiy rolni o'ynaydi. Bundan esa hozirda baxtga qarshi, xalqaro ekstremistik-terrorchi tashkilotlar: ISHID, Al-Qoida va boshqalar «unumli» foydalanishdi. Natijada bu davlatlar ijtimoiy rivojlanishdan bir necha o'n yillarga ortga qaytib ketmoqdalar. Bu mamlakatlardagi ayanchli, ijtimoiy beqaror ahvol O'zbekistonda fuqarolar, konfessiyalar va millatlar o'rtasidagi bag'rikenglik munosabatlarini ta'minlash vazifalari naqadar ilg'or, pragmatik hamda muvaffaqiyatli tarzda olib borilayotganligining amaliy isbotidir. O'zbekiston Respublikasi din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan ruxsat etilib, nashr qilinayotgan islom manbalaridan chuqur tanishib borayotgan vatandoshlarimiz dinga birovni zo'rlab kirgizish mumkin emasligi, islomni qabul qilmagan kishilarni kamsitish va ularga azob-uqubat yetkazishdan tiyilish zarurligini ushbu adabiyotlarda bayon etilgan ishonchli dalil hamda hujjatlar asosida chuqur anglab yetmoqdalar. Shuningdek, televidenie ko'rsatuvlari va radioeshtirishlarda din ulamolarining islom dini tarixiy-madaniy merosiga tayanib, bu masala bo'yicha qilayotgan ma'ruzalari ham boshqa dindagilarga nisbatan bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirish bo'yicha o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Ilgari surilgan xulosalar shundan darak berayaptiki, jamiyatimiz barqarorligini ta'minlashga islom dinining qadriyatlarini o'zida tarannum etgan bag'rikenglik tamoyili faol ta'sir ko'rsatmoqda. Pirovardida, mamlakatimiz aholisining bu masala bo'yicha islom dini manbalaridan yetarlicha xabardor bo'lishi, dinimizning bag'rikenglikka asoslangan qadriyatlariga amal qilinishi Vatanimizda yashayotgan 130dan ortiq millatga mansub fuqarolar, mavjud 16 ta konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro ahillik va inoqlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayapti degan fikrni ilgari surishimiz mumkin. Mamlakatimizda bag'rikenglik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etishiga davlatimiz rahbari 2018 yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida e'tibor qaratdi. «O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir. Xabaringiz bor, yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi

tomonidan muhim bir hujjat – «Ma’rifat va diniy bag’rikenglik» rezolyusiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yil sentyabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi. Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat keng qo‘llab-quvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga berilgan yuksak baho va e’tirof sifatida barchamizga katta mamnuniyat va g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi» [4].

Ammo, hozirgi murakkab va qaltis ijtimoiy-siyosiy davr hamda sharoitlarda sira hotirjamlikka berilishimiz mumkin emas. Bu haqda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yilning 15-iyun kuni diniy soha vakillari bilan «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusida o‘tkazilgan anjumanda quyidagi fikrni alohida ta’kidlab o‘tdi: «Imom-xatiblar keng jamoatchilik orasida mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, bunday barqaror va osoyishta muhit osmondan tushmayotganini targ‘ib etish, ota-bobolarimiz ming yillardan buyon pok saqlab kelayotgan islom dini har qanday zo‘ravonlikka, buzg‘unchilikka, begunoh insonlarning qonini to‘kishga mutlaqo qarshi ekanini oyat va hadislar asosida, jonli misollar yordamida ta’sirchan yetkazib berishlari zarur» [3, –B.485].

Ushbu fikrlar mamlakatimiz rahbarining xalqimiz ma’naviy tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘yayotgani bejiz emasligini ko‘rsatadi. Chunki boy ma’naviy meros asosida tarbiyalangan kishilarning tafakkur qilishlari yuqori darajada ratsional bo‘ladi. Natijada ular jamiyat hayoti, uning muammolariga, jumladan, turli dinlar va millatlarga taalluqli bo‘lgan fuqarolarimiz orasida haqiqiy bag‘rikenglikka asoslangan o‘zaro munosabatlarga to‘g‘ri pozitsiyadan turib yondashadilar. Mamlakatimizda dinlararo va millatlararo totuvlikni ta’minlashga asos bo‘ladigan islom dinidagi bag‘rikenglik g‘oyalarini fuqarolarimizga Qur‘on va hadislariga tayanilgan holda tushuntirib berishda O‘zbekiston Respublikasi din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlar idorasi hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi jamoalari yaqindan hamkorlik qilishayapti. Jumladan, aholining turli qatlamlari orasida “Jaholatga qarshi ma’rifat” ruknidagi tadbirlar mazkur hamkorlikning natijasi sifatida mamlakatimizning barcha mintaqalarida muntzam tarzda o‘tkizilayapti va bu jarayon yurtimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida barqarorlikni ta’minlashga munosib omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Albatta, tolerantlik jarayonini ta’minlashda davlatimiz faqat tarixiy merosga tayanish bilan chegaralanib qolayotgani yo‘q. Zamonaviy O‘zbekistonda mavjud 16 ta konfessiya va 130 dan ortiq millat o‘rtasidagi bag‘rikenglikni ta’minlashda dunyoviylik va diniylik munosabatlarini yanada takomillashtirish maqsadiga qaratilgan ulkan ishlar olib borilmoqda. Buning yorqin timsoli sifatida O‘zbekistonda 1999-yilning 7 aprelida Toshkent islom universitetini tashkil qilinganligi va 2018 yilning 16 aprelida esa mazkur universitet negizida ta’sis etilgan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini e’tirof qilish mumkin. Mazkur oliy ta’lim muassasasi (hozirgi kunda O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi deb nomlangan) tom ma’noda dunyoviy xususiyatga ega bo‘lib, unda talabalar dunyoviy bilimlar bilan birgalikda diniy ilmlarni ham chuqur o‘zlashtirish uchun barcha shart-sharoitlarga egadirlar. Ular kelgusidagi o‘z kasbiy-ijtimoiy faoliyatlari bilan buyuk ajdodlarimizning haqiqiy bag‘rikenglikni tarannum etuvchi boy dunyoviy-diniy merosini yanada yuksaltirish asosida mamlakatimizda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga o‘zlarining salohiyatli ulushlarini qo‘shishga qodir bo‘lishlariga shak-shubha yo‘q.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: «Ўзбекистон». 2023. (Uzbekistan Republic and Constitution. – Tashkent: “Uzbekistan”. 2023)
2. Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг виждон эркинлигини таъминлаш ва диний соҳадаги давлат сиёсати КОНЦЕПЦИЯСИ. ттпс://www.lex.uz/ru/docs/7404923 (Conception of social society of citizens and Republic of Uzbekistan and gosudarstvennaya politics

and religious sphere)

3. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. //Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. 1-жилд. (Mirziyoyev Sh.M. Let us act even more unitedly and decisively for the sake of the fate and future of our Motherland. // We will decisively continue the path of national development and raise it to a new level. - Tashkent: "Uzbekistan", 2018. V. 1.)

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/2228> (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis)

5. Ганиева М.Х. Общественное мнение как фактор развития национальных отношений в Узбекистане. -Ташкент: «Университет». 2006. (Ganieva M.Kh. Public opinion as a factor in the development of national relations in Uzbekistan. - Tashkent: "University". 2006)

6. Камиллов К.С. Глобаллашув шароитида диний соҳа ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари. Фалсафа фан.ном... дисс.автореферати. – Тошкент: 2011. (Kamilov K.S. Features of the development of the religious sphere in the context of globalization. Abstract of the dissertation of the candidate of philosophical sciences. –Tashkent. 2011)

7. Кравченко С.А. Социологический энциклопедический русско-английский словарь. -Москва: «Астрель Аст. Транзиткнига». 2004. (Kravchenko S.A. Sociological encyclopedic Russian-English dictionary. -Moscow: "Astrel Ast. Transitbook". 2004)

8. Матибаев Т.Б. Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик тизими:шаклланиши, ривожланиши ва истиқболлари. – Тошкент: «Академия». 2014. (Matibaev T.B. System of public cooperation in Uzbekistan: establishment, development and perspective. - Tashkent: "Academy". 2014)

9. Маърифат-тинчлик асоси. З.Исломов таҳрири остида. –Тошкент: «Тошкент ислом университети». 2007. (Enlightenment is the Foundation of Peace. Edited by Z. Islamov. – Tashkent: "Tashkent Islamic University". 2007)

10. Ижтимоий ҳимояга оид Қуръони карим оятлари ва ҳадислардан намуналар. Маъсул муҳаррир З. Исломов – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2007. (Examples from the verses of the Holy Quran and hadiths on social protection. Editor-in-chief Z.Islomov. – Tashkent: Publishing and printing association "Tashkent Islamic University". 2007)

11. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол.-Тошкент: «Шарқ», 2012. Биринчи жуз. (Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Interpretation of Hilal. Volume first. –Tashkent: "East". 2012)

12. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол.-Тошкент: «Шарқ», 2012. Олтинчи жуз. ((Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Interpretation of Hilal. Volume Six. –Tashkent: "East". 2012)

13. Фарфиев Б.А. Ўзбекистон ижтимоий тараққиётида ислом рационализи омили./ Монография. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти. 2019. (Farfiyev B.A. The factor of Islamic rationalism in the social development of Uzbekistan. / Monograph. - Tashkent: Publishing house "National Society of Philosophers of Uzbekistan". 2019)

14. <http://kun.uz/news/2017/10/04/butun-rossia-patriarhi-amerika-evropa-siesatcilarini-uzbekistonga-ca>

15. <https://ria.ru/religion/20171011/1506630492.html>

16. <https://uz.sputniknews.ru/radio/20190120/10570176/Vikentiy-otreagiroyal-na-soobscheniya-o-pritesneniyakh-khristian-v-Uzbekistane.html>

17. <https://daryo.uz/k/2019/01/21/vikentiy-o-zbekistonda-xristian-dini-vakillarini-chiqishtirmasligi-yuzasidan-paydo-bo-1gan-xabarlargamunosabat-bildirdi/>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000